



**SENSOR KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALAR UCHUN  
INKLYUZIV TA'LIM STRATEGIYALARI VA ULARNI AMALGA  
OSHIRISH SHART SHAROITLARI**

*Xujaqulova Aziza Zafardiyor qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*2-kurs 2-23guruh talabasi*

*E-mail: azizaxujaqulova@gmail.com*

**ANNOTASIYA:** *Mazkur maqolada sensor kamchiligi bo'lgan bolalarning ta'lif olishi uchun ta'lif strategiyalari, sensor kamchilik turlariga qarab strategiyalar, ularni amalga oshirish shart-sharoitlari, moliyalashtirish masalalari o'rganiladi. Jamiyatning sensor kamchiligi bor bo'lgan bolalarning ta'lif olishiga nisbatan munosabatini o'zgartirish, inkyuziv ta'limning afzalliklari yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Individual yodashuv, kompentatsiya, korreksiya, moslashtirilgan o'quv muhiti, ijtimoiy integratsiya, moliyalashtirish*

**АННОТАЦИЯ:** В статье рассматриваются образовательные стратегии для детей с сенсорными нарушениями, стратегии в зависимости от типа сенсорных нарушений, условия их реализации и вопросы финансирования. Изменение отношения общества к образованию детей с сенсорными нарушениями и подчеркивание преимуществ инклюзивного образования.

**Ключевые слова:** Индивидуальный подход, компенсация, коррекция, адаптированная среда обучения, социальная интеграция, финансирование.

**ABSTRACT:** This article examines educational strategies for children with sensory impairments, strategies depending on the type of sensory impairment, conditions for their implementation, and financing issues. Changing the attitude of society towards the education of children with sensory impairments, the advantages of inclusive education are highlighted.



**Keywords:** Individual approach, compensation, correction, adapted learning environment, social integration, financing

Sensor kamchiligi bo'lgan bolalar uchun ta'lif tizimini tashkil etishning ahamiyatli va dolzarbdir. Sababi sensor kamchiligi bor bolalar jamiyatning eng zaif qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularga teng imkoniyatlar yaratish, shu jumladan ta'lif olish imkoniyatini ta'minlash ijtimoiy adolat va tenglikning muhim sharti hisoblanadi.

"Sensor" so'zi lotincha "sensus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tirik organizmning tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarni sezadigan va asab tizimiga xabar beradigan a'zosi. Masalan, ko'z - yorug'likni, qulqoq - tovushni, til - ta'mni, teri - harorat, bosim va og'riqni sezadigan sensorlardir. Ushbu sensorlardagi kamchiliklari bor bolalar esa inkluziv ta'lif zarur bo'lgan qatlamlardan biridir. Barcha bolalar, ularning jismoniy va ruhiy holatidan qat'i nazar, sifatli ta'lif olish huquqiga ega. Bu huquqni ro'yobga chiqarish uchun inklyuziv ta'lifni to'liq moliyalashtirish zarurdir. Sensor kamchiligi bor bolalar jamiyatning bir qismi bo'lib, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish mamlakatning inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Sifatli ta'lif olgan sensor kamchiligi bor bolalar kelajakda jamiyatga foydali a'zo bo'lishi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi va o'z hayotini mustaqil ravishda ta'minlashi mumkin. Bundan tashqari, sifatli ta'lif olgan sensor kamchiligi bor bolalar kelajakda davlat yordamiga kamroq muhtoj bo'ladi va iqtisodiyotga o'z hissasini qo'shadi. Inklyuziv ta'lif nogironlik bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi va jamiyatning barcha a'zolari uchun imkoniyatlar yaratadi. Inklyuziv ta'lif Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu tufayli, ko'pgina davlatlar inklyuziv ta'lif tizimini rivojlantirishga qaratilgan siyosat va dasturlarni amalga oshirmoqda va xalqaro tashkilotlar inklyuziv ta'lifni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy va texnik yordam ko'rsatmoqda.

Bu sohada O'zbekiston ham o'ziga xos siyosat yaratmoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (PQ-74, 27.02.2023) va boshqa normativ-huquqiy hujjalarni inklyuziv ta'lifni rivojlantirishga qaratilgan siyosatning amaliy natijasidir. Chunki, O'zbekistonda



sensor kamchiligi bor bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ammo amaliyotda bir nechta muammolar mavjud, jumladan O'zbekistonda inklyuziv ta'limni moliyalashtirish hali ham yetarli emas. Buning uchun esa, mablag'larni taqsimlash va ulardan foydalanishda shaffoflik va samaradorlikni oshirish zarur. Shuningdek, inklyuziv ta'limni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Hozirgi kunda sog'lom bola ta'lim tarbiyasi bilan sensor kamchiligi bor bolalar ta'limi anchagina farq qiladi va buning uchun malakali kadrlar tayyorlash, pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish, barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan ta'lim muhitini yaratish, ularning ta'lim olishiga jamiyatni tayyorlash muhim masala hisoblanadi. Sezgi organlari - organizmga ta'sir qilayotgan tashqi ta'sirlarni qabul qilish va idrok etishni ta'minlaydigan ixtisoslashgan periferik tuzilmalar. Ular organizm tashqi va ichki muhitdan oladigan turli qo'zg'alishlarni qabul qilib, bu hakdagi informatsiyani markaziy nerv sistemasiga uzatadi. So'ng organizmning atrof muhitga yanada moslashishiga imkon beradi. O'ta ixtisoslashgan qo'zg'aluvchanlik tufayli faqat ma'lum turdag'i ta'sirotning idrok etilishini ta'minlaydi. Odamda ko'rish organlari, eshitish organlari, hid bilish organlari, maza bilish, tuyg'u organlari farq qilinadi. Sensor kamchiligi bor bolalar, ya'ni sezgi organlari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, taktil) faoliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim strategiyalari ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan holda, inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslanishi kerak.

Bunday masalalarni hal qilish uchun bir nechta ta'lim strategiyalarini ko'rsatib o'tish lozim:

Birinchi usuli individual yondashuv bilan har bir bolaning sensor kamchiligining turi, darajasi, rivojlanish xususiyatlari va ta'limiy ehtiyojlarini aniqlash. Individual ta'lim rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali;

Ikkinci usuli sezgi organlarining faoliyatini qisman yoki to'liq kompensatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali mavjud sezgi organlarining



funksiyalarini rivojlantirish, yordamchi vositalardan (ko'rish uchun lupa, eshitish uchun apparat, taktil materiallar) foydalanish bilan.

Uchinchi usuli o'quv materiallarini turli sezgi organlari orqali qabul qilish imkoniyatini yaratish orqali. Misol uchun, ko'zi ojiz bolalar uchun o'quv materiallarini Brayl alifbosida taqdim etish, eshitish qobiliyati past bolalar uchun vizual materiallar va imo-ishora tilidan foydalanish.

To'rtinchi usuli o'quv xonasini bolalarning ehtiyojlariga moslashtirish. Ko'zi ojiz bolalar uchun yaxshi yoritilgan, to'siqlardan xoli muhit yaratish, eshitish qobiliyati past bolalar uchun shovqinni kamaytirish, yaxshi akustikani ta'minlash.

Beshinchi usuli sensor kamchiligi bor bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan muloqotini rag'batlantirish. Sinfdoshlarning tolerantligini oshirish, hamkorlikda o'qish va o'yinlarni tashkil etish.

Oltinchi usuli bolalarning qiziqishlari, qobiliyatları va imkoniyatlariga mos keladigan kasblarni tanlashga yordam berish. Kasbiy ta'lim va amaliyot o'tash imkoniyatlarini yaratish.

Yettinchi usuli ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish. Ota-onalar uchun maslahatlar berish, treninglar o'tkazish, ularning tajribalarini almashish uchun platforma yaratish.

Har bir bolaning sensor kamchiligi turiga qarab esa quyidagicha strategiyalarni ishlab chiqish mumkin:

Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun brayl alifbosidan foydalanish, lupa, teleskop, elektron kattalashtiruvchi vositalar, audio kitoblar, taktil materiallar, yoritilganlikni optimallashtirish, katta shriftlardan foydalanish bilan;

Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun eshitish apparatlari, koklear implantlar, imo-ishora tili, vizual materiallar (rasmlar, videolar, diagrammalar), subtitrlar, shovqinni kamaytirish orqali;

Nutq nuqsoni bo'lgan bolalar uchun nutq terapiysi, alternativ kommunikatsiya vositalari (rasmlar, belgilar, kompyuterlar), sabr-toqatli va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish orqali;



Boshqa sensor nuqsonlari (hid bilish, ta'm bilish, taktil) bor bolalar uchun individual ehtiyojlarga asoslangan moslashuvlar, xavfsizlikni ta'minlash o'ziga xos ta'lim usullari orqali.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi amaliy yechimlarni taklif qilamiz:

1. Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik bazasini yaratish. Sensor kamchiligi bor bolalarning ta'lim olish huquqini kafolatlash.
2. Inklyuziv ta'limni moliyalashtirishni ko'paytirish. Maxsus ta'lim muassasalari, yordamchi vositalar, o'qituvchilarni tayyorlash uchun mablag' ajratish.
3. Maxsus pedagoglar, logopedlar, psixologlar, surdopedagoglar, tiflopedagoglar va boshqa mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash. O'qituvchilarni inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish.
4. Maxsus o'quv materiallari, yordamchi vositalar, texnologiyalar bilan ta'minlash. Maktablarni inklyuziv ta'lim uchun zarur bo'lgan jihozlar bilan ta'minlash.
5. Jamiyatning sensor kamchiligi bor bolalarga nisbatan munosabatini o'zgartirish. Inklyuziv ta'limning afzalliklari haqida xabardorlikni oshirish, kamsitishga qarshi kurashish.

Sensor kamchiligi bor bolalar uchun inklyuziv ta'limni moliyalashtirish – bu sifatli va samarali ta'lim berishning muhim sharti. Avvalo, moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirilishi kerak. Bunda bir nechta manbaalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Davlat budgeti
2. Mahalliy budgetlar;
3. Nodavlat tashkilotlar (NNT) va xayriya tashkilotlari;
4. Xalqaro tashkilotlar;
5. Ota-onalarning hissasi.

Ular maxsus ta'lim xizmatlari, maxsus pedagoglar, logopedlar, psixologlar, surdopedagoglar, tiflopedagoglarning ish haqi, individual ta'lim rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, reabilitatsiya xizmatlari, o'quv materiallari va texnologiyalar, brayl alifbosidagi kitoblar, audio kitoblar, taktil materiallar, eshitish



apparatlari, koklear implantlar, kompyuterlar, planshetlar, maxsus dasturiy ta'minot, yordamchi texnologiyala, panduslar, liftlar, tutqichlar, taktil yo'laklar, yoritish va akustikani yaxshilash, maxsus jihozlangan sinf xonalari yordam berishlari mumkin

Amaliyatda moliyalashtirish bilan bog'liq quyidagi muammolar uchrab turadi:

1. Mablag'larning yetishmasligi;
2. Mablag'larning noto'g'ri taqsimlanishi;
3. Moliyalashtirish jarayonining murakkabligi;
4. Hisobdorlikning pastligi.

Moliyalashtirishni esa quyidagi usullar orqali yaxshilash mumkin:

1. Davlat budgetidan ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish;
2. Moliyalashtirishning shaffof va samarali tizimini yaratish;
3. Mahalliy hokimliklarning inklyuziv ta'limni moliyalashtirishdagi rolini oshirish;
4. NNTlar va xayriya tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
5. Xalqaro donorlarning grantlarini jalg qilish;
6. Moliyaviy resurslardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish;
7. Moliyaviy resurslarni taqsimlashda adolat va tenglikni ta'minlash.

To'g'ri moliyalashtirish orqali sensor kamchiligi bo'lgan bolalar ta'limda teng imkoniyatlarga ega bo'lishi va jamiyatga to'liq integratsiya qilishni taminlab beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha inson jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan qat'iy nazar mamlakat fuqarosi, kimningdir farzandi bo'lib uning yashash va ta'lim olishga to'laqonli haqqi bor va albatta bu qonunda belgilab berilgan. Inklyuziv ta'limning ahamiyati va afzalliklari umuman ta'lim oluvchilar o'rtasida insonparvarlikni, o'zaro hurmatni shakllantiradi va imkoniyati cheklangan insonlarning qobiliyatlarini, imkoniyatlarini tarbiyalab, jamiyatga foydali shaxs bo'lib yetishishini ta'minlab beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. Бобомуродов Норпулат Ширинович Структуры физической подготовленности курашистов // Вестник науки и образования. 2020. №4-2 (82). обращ.
2. Bobomurodov, Norpo'lat Shirinovich. "Kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi tuzilmalari". Fan va ta'lif axborotnomasi 4-2 (82) (2020.). дения: 24.12.2021
3. "Inklyuziv ta'lif: nazariya va metod" F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Chirchiq.2022.
4. Tomlinson, C. A. (2001). Mixed-Ability Sinflarda Ta'lifni Farqlash. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development.
5. Gardner, H. (1993). Aqlning Ramkalari: Ko'p Intellektualar Nazariyasi. New York: Basic Books.
6. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Birgalikda va yolg'iz o'rganish: hamkorlik, raqobat va individual o'rganish. Boston: Allyn & Bacon.
7. Muhammadjon o'g'li, S. A. (2024). IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA: Siddiqov Azamat Muhammadjon o 'g 'li. Лучшие интеллектуальные исследования, 22(5), 48-54.
8. Muhammadjonov, S. A. (2024). AQLI ZAIFLIKNING TURLARI, BELGILARI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI. PEDAGOGS, 52(1), 154159.
9. Qambaraliyeva, D. A. Q., & Siddiqov, A. M. (2024). Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar nutqini o'stirish. Science and Education, 5(2), 525-531.